

RAQAMLI MUHITDA FARZAND TARBIYASI: PSIXOLOGIK VA AXLOQIY YONDASHUVLAR

Z.T.Alisherova-Andijon davlat
pedagogika instituti o’qituvchisi
S.S.Sattarova-BT yo’nalishi talabasi
E-mail: sarvinozsattarov07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411427>

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli jamiyat inson hayotining barcha jabhasida, axloq va qadriyatlar tizimida tub o’zgarishlarga sabab bo’layotgani asoslangan.. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internetning keng tarqalishi tufayli insonlar o’rtasida muloqot, ijtimoiy aloqalar va axloqiy me’yorlar qayta shakllanib borayotgani izohlangan. Raqamli muhitda farzand tarbiyasi: psixologik va axloqiy yondashuvlar haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: jamiyat, raqamli jamiyat, internet, axloq, qadriyat, texnologiyalar, psixologik yondashuv, axloqiy yondashuv.

Аннотация. Цифровое общество вызывает фундаментальные изменения во всех аспектах человеческой жизни, в системе этики и ценностей. В связи с быстрым развитием технологий и широким распространением интернета происходит перестройка коммуникации, социальных отношений и моральных норм между людьми. В данной статье рассматривается воспитание детей в цифровой среде: психологический и этический подходы.

Ключевые слова: общество, цифровое общество, интернет, этика, ценности, технологии, психологический подход, этический подход.

Abstract. The digital society is causing fundamental changes in all aspects of human life, in the system of ethics and values. Due to the rapid development of technologies and the widespread use of the Internet, communication, social relations and moral norms between people are being reshaped. This article discusses raising children in a digital environment: psychological and ethical approaches.

Keywords: society, digital society, Internet, ethics, values, technologies, psychological approach, ethical approach.

Kirish. Bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli platformalar foydalanuvchilari insonlar o’rtasida yangi axloqiy me’yorlarni belgilamoqda. Bu esa shaxsiy hayotga daxldorlik, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish kabi qator masalalarni kun tartibiga qo’ydi. Hozirgi raqamli jamiyatda axloqiy masalalarning ko’payishi yangi axloqiy tamoyillar va yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Jumladan, kiberbulling, internetdagi aldash va firibgarlik, feyk axborotlar tarqatilishi kabi muammolar axloqiy va huquqiy jihatdan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, axloqiy tarbiya va raqamli savodxonlik kabi mavzular jamiyatning barcha qatlamlari uchun dolzarb ahamiyatga ega bo’lib qolmoqda.

“Bugungi kunda farzandlarimiz internet va axborot texnologiyalari davrida ulg’aymoqda. Shuning uchun ularni raqamli olamda to’g’ri yo’lga boshlash, zararli axborotlardan himoya qilish va ilm-ma’rifatga yo’naltirish barchamizning muhim vazifamizdir.”[1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabr kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo’llagan Murojaatnomasi].

Raqamli jamiyatda axloq va qadriyatlar faqatgina insonlar o’rtasidagi munosabatlar va muloqot me’yorlarini aniqlash emas, balki raqamli hayotning barcha sohalarida ustuvor me’yorlar sifatida shakllanishi zarur. Axloqiy qadriyatlarning raqamli muhitdagi rivojlanishini ta’minlash, ularning barqarorligiga erishish hamda jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash uchun muhim ilmiy asoslarni yaratish zarur.

Raqamli muhitda farzand tarbiyasi ota-onadan qat’iy cheklov emas, balki pedagogik-psixologik ko’mak va axloqiy yo’nalish berishni talab qiladi. Asosiy yondashuv — internet xavfsizligi qoidalarini o’rgatish, shaxsiy namuna ko’rsatish va ijtimoiy-emotsional ko’nikmalarni rivojlantirish orqali texnologiyaga bog’lanib qolishning oldini olish hamda ongli foydalanishni shakllantirishdir.

Raqamli muhitda tarbiyaning psixologik va axloqiy tamoyillari:

Raqamli savodxonlik va xavfsizlik. Farzandlarga shaxsiy ma’lumotlarni yashirish, kiberbulling (internetda tazyiq)dan himoyalanih va ishonchsiz ma’lumotlarni ajratishni o’rgatish.

Psixologik qo’llab-quvvatlash. Virtual olamdagi muammolar (o’yinlarga qaramlik, tushkunlik)ni erta aniqlash uchun bola bilan ishonchli muloqotni saqlash, ekran vaqtini va mazmunini nazorat qilish.

Axloqiy qadriyatlar. Haqiqiy hayotdagi odob-axloq qoidalari (hurmat, samimiylik, mas’uliyat) virtual muloqotga ham tegishli ekanligini anglatish.

Ota-ona namunasining ahamiyati. Kattalarning ham telefondan oqilona foydalanishi, farzand bilan «jonli» muloqotga ko’proq vaqt ajratishi.

Bu yondashuvlar farzandning raqamli dunyoda xavfsiz va axloqiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Raqamli jamiyatda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligi masalalari ko’pchilikning e’tiboridan chetda qolmoqda. Aksariyat foydalanuvchilar shaxsiy ma’lumotlari, parollar va bank ma’lumotlarini xavfsiz saqlash borasida yetarli bilimga ega emas. Bundan tashqari, kiberhujumlar, shaxsiy ma’lumotlarning yoyilishi va axborot xavfsizligi bilan bog’liq boshqa muammolar shaxslar va tashkilotlar o’rtasidagi ishonchsizlikni kuchaytiradi. Raqamli platformalarda odamlar o’rtasidagi muloqotlar ko’p hollarda agressiya, nafrat va haqoratlariga aylanadi. Bu, ayniqsa, yoshlar o’rtasida kiberbulling holatlarining ko’payishiga olib keladi. Buning sababi anonimlik, javobgarlikning yetishmasligi va foydalanuvchilarda axloqiy normalarni bilish va ularga rioya qilish darajasining pastligidir. Kiberbulling va onlayn agressiya raqamli jamiyatdagi eng jiddiy axloqiy muammolardan biri hisoblanadi.

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida axloqiy tarbiya va raqamli savodxonlikni oshirish bo’yicha maxsus kurslar va treninglar tashkil qilinishi, yoshlar kiberbulling va uning salbiy oqibatlarini haqida to’g’ri ma’lumotga ega bo’lishi kerak. Bu ularning onlayn muhitda muloqot qilish madaniyatini yaxshilashga yordam beradi.

Raqamli jamiyatda odamlarning axloqiy qarashlari va madaniyati yetarli darajada shakllanmagan bo’lishi mumkin. Turli mamlakat va madaniyatlar o’rtasida axloqiy me’yorlar va qoidalar farqlanadi, bu esa turli xil nizolar va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Raqamli jamiyatda axloqiy me’yorlarga rioya qilish uchun axloqiy tarbiyani kuchaytirish va raqamli savodxonlikni oshirish muhim ahamiyatga ega. Maktablar va oliy ta’lim muassasalarida axloqshunoslik va raqamli savodxonlik bo’yicha maxsus kurslar va treninglarni joriy etish lozim. Foydalanuvchilarga raqamli platformada muloqot qilish madaniyati, axloqiy tamoyillar va kiberxavfsizlik bo’yicha ma’lumot berish kerak. Har bir shaxs va tashkilot axborot xavfsizligini ta’minlash bo’yicha chora-tadbirlarni ko’rishi zarur. Jumladan, kuchli parollar yaratish, ikki bosqichli autentifikatsiyani faollashtirish, shaxsiy ma’lumotlarni saqlashda ehtiyot bo’lish, kiberhujumlardan himoyalanih uchun maxsus dasturlardan foydalanishni o’z ichiga oladi.

Davlatlar va kompaniyalar axborot xavfsizligini ta’minlash bo’yicha qonunlar va bu bo’yicha siyosatini kuchaytirishi lozim.

Axloqiy tarbiyani kuchaytirish va raqamli madaniyatni oshirish bilan raqamli jamiyatda xavf-xatarlarni kamaytirish mumkin. Shu bois davlat va jamiyatning raqamli savodxonlikni oshirishga yo’naltirilgan siyosat va dasturlari muhim ahamiyatga ega.

Raqamli jamiyatda axloq va qadriyatlar muhim ahamiyatga ega va ularni saqlash hamda rivojlantirish uchun ijtimoiy, ta’limiy, texnologik va qonuniy choralarini birgalikda qo’llash zarur. Axloqiy qadriyatlarning raqamli muhitdagi rivojlanishini ta’minlash, axloqiy tarbiyani kuchaytirish va axborot xavfsizligini ta’minlash bilan raqamli jamiyatda xavf-xatarlarni kamaytirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash mumkin.

“Internet yoshlar uchun katta axborot manbai va imkoniyatdir, lekin undan nazorat va madaniyat bilan foydalanilmasa, u yoshlarning psixologiyasi, dunyoqarashi va xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin”[3.296-bet]

Xulosa. Raqamli muhitda tarbiya samarali va xavfsiz bo’lishi uchun ota-onalar va pedagoglar ongli va muvozanatli yondashuvni qo’llashlari shart. Bu shunchaki cheklash emas, balki bolalarga raqamli savodxonlikni o’rgatish, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va internetdan mas’uliyatli foydalanish ko’nikmalarini shakllantirish demakdir. Raqamli vositalarning afzalliklaridan foydalangan holda, ularning xavf-xatarlaridan himoyalaniшни ta’minlash, bolalarning onlayn faoliyatini nazorat qilish va ular bilan ochiq muloqot o’rnatish - zamonaviy tarbiyaning ajralmas qismidir. Faqatgina shu yo’l bilan raqamli muhitni bolalarimizning rivojlanishi uchun xavfsiz va samarali maydonga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabr kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo’llagan Murojaatnomasi

2.Ahmedov A. Yoshlarning raqamli madaniyatini shakllantirishning pedagogikpsixologik asoslari. - Toshkent: O’zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022.

3.E. G’oziyev, “Umumiy psixologiya”, Toshkent, “O’qituvchi” nashriyoti, 2011.

4.Karimov O. I. Axborot jamiyati sharoitida yoshlar tarbiyasining dolzarb masalalari. - Toshkent: O’zbekiston, 2023.

5.Saidov M. Ta’lim jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

6.Toshpulatov S. Internet va yoshlar: Imkoniyatlar va xavf-xatarlar. - Toshkent: Ma’naviyat, 2020.

7. Alisherova , Z. (2025). O’smirlarning o’zaro munosabatlaridagi muloqot jarayonida emotsional intellektni o’rni. *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(4.2), 544–546. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/2156>

8. Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna. (2025). The importance of emotional intelligence in the development of socio-psychological adaptation of adolescents. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 4(6), 148–150. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/3411>